



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADJANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

**12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ**

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

**12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA**

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 349.2 (042)(575.1)

SHAXSNING AYBDORLIK MASALASINI HAL QILMASDAN JINOYAT ISHINI TUGATISH TARTIBI

Abdurayimov Sardorjon Qahramon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: 8sardorbek@gmail.com
ORCID: 0000-0003-2304-7883

Annotatsiya. Qonun ustuvor bo'lgan mamlakatlarda jamoat manfaatlari ustuvor hisoblanadi, jinoyatchilik qarshi kurashishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, jinoyat har doim sodir bo'lib turadigan jamiyatdagi ziddiyat, yagona ijtimoiy-huquqiy uni hal qilish vositasi jinoiy ishlar bo'yicha adolatdir. Zamonaviy jinoyat-protsessual siyosati qonunchilikni insonparvarlashtirishga, unga qarshi kurash choralarini demokratlashtirishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Bunday sharoitda jinoyatchilik muammosini hal qilishda jazolash (repressiv) yondashuvi qayta ko'rib chiqish kerak. Jahon huquqiy amaliyotida jinoyat uchun jazolashni muqobil shakllarini izlash va rivojlantirishga, shuningdek sodir etilgan jinoyat, yangi jinoyat va jinoyat-protsessual ushbu yo'nalishdagi siyosat millatlararo tendensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan hisoblanadi. Shu o'rinda, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, muqobil huquqiy vosita sifatida tugatish protsessual instituti asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Buning sababi, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror moddiy va protsessual huquqiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: jinoyat, sudlanuvchi, aybdorlik masalasi, jinoyat ishi, jinoyat ishini tugatish, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi.

ПОРЯДОК ПРЕКРАЩЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА БЕЗ УСТАНОВЛЕНИЯ ВИНЫ ЛИЦА

Абдураимов Сардоржон Кахрамон угли,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В странах с верховенством закона приоритет отдается общественным интересам, основное внимание уделяется борьбе с преступностью. В то же время конфликт в обществе, в котором происходит преступление, единственным социально-правовым средством его разрешения является правосудие по уголовным делам. Современная уголовно-процессуальная политика направлена на гуманизацию законодательства, демократизацию мер борьбы с ним, обеспечение социальной справедливости. В этих условиях необходимо пересмотреть карательный (репрессивный) подход к решению проблемы преступности. В мировой юридической практике поиск и разработка альтернативных форм наказания за преступления, а также политика в сфере совершаемых преступлений, новых преступлений и уголовного процесса считаются направленными на развитие межнациональных тенденций. В связи с этим, если обратиться к опыту законодательства Российской Федерации, институт ликвидационного производства как альтернативный правовой инструмент является одним из основных институтов. Это связано с тем, что решение о прекращении уголовного дела имеет как материально-правовые, так и процессуально-правовые последствия.

Ключевые слова: преступление, обвиняемый, вопрос о виновности, уголовное дело, прекращение уголовного дела, обвиняемый, подозреваемый.

THE PROCEDURE FOR TERMINATING A CRIMINAL CASE WITHOUT RESOLVING THE ISSUE OF THE GUILT OF THE INDIVIDUAL

Abdurayimov Sardorjon Qahramon ugli,
Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *In countries with the rule of law, priority is given to the public interest, the main focus is on the fight against crime. At the same time, a conflict in a society in which a crime always occurs, the only socio-legal means of resolving it is criminal justice. Modern criminal procedure policy is aimed at humanizing legislation, democratizing measures to combat it, and ensuring social justice. In these conditions, it is necessary to reconsider the punitive (repressive) approach to solving the problem of crime. In the world legal practice, it is considered that the policy in this direction is aimed at finding and developing alternative forms of punishment for a crime, as well as for a committed crime, a new crime and the criminal procedural development of interethnic trends. In this regard, drawing attention to the experience of the legislation of the Russian Federation, it should be noted that the institution of liquidation procedure as an alternative legal instrument is one of the main ones. This is due to the fact that the decision to terminate a criminal case is of material and Procedural-legal significance.*

Keywords: *crime, accused, question of guilt, criminal case, termination of criminal case, accused, suspect.*

Kirish

Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish bo'yicha protsessual qoidalarni qayta ko'rib chiqishdan asosiy maqsad, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gruziya, Qozog'iston kabi rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasini puxta o'rganish orqali jinoyat ishini tugatishda korrupsiyaviy omillarni butunlay bartaraf etish, mazkur institut ishlashida shaxsga qulay muhit yaratish, mazkur tartibda ortiqcha protsessual qoidalarni olib tashlashdan iborat.

Mazkur maqsad uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olinishi zarur:

- jinoyat ishini tugatish institutining mohiyatini qo'llab-quvvatlash;
- jinoyat ishini tugatish institutining mexanizmdagi rolini aniqlash jinoyat protsessi vazifalarini amalga oshirish;
- jinoyat ishi to'xtatilganda shaxsning huquqlarini ta'minlash;
- jinoiy ish yuritish tamoyillarining ahamiyatini aniqlash jinoyat ishini tugatish institutini shakllantirish va faoliyat ko'rsatish;
- jinoyat ishi tugatilganda unga nisbatan shikoyat qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilab olish.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi:

- birinchidan, shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish tartibi qonunchilik hujjatlarida qanchalik samarali tartibga solingan;
- ikkinchidan, ushbu faoliyatda besh yillik jinoyat ishini ko'rib chiqish amaliyoti qanday shakllandi;
- uchinchidan, huquqni qo'llash amaliyotida shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish qanday amalga oshirilmoqda.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning himoyalaniş huquqi Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish tartibi amaliyotda quyidagi tartibda amalga oshirilmoqda:

Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va rehabilitatsiya etilishi lozim:

– ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoyiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

– uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;

– uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga ko'ra, quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

– shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

– e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;

– ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

– shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;

– shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

– ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

– shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoyiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;

– O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Ta'kidlash lozimki, jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan darajada buzilishi yuzaga kelgan shaxs to'g'risidagi jinoyat ishi ushbu Kodeksning 61-bobida belgilangan tartibda aybdorlik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatiladi.

Shu bilan birga, jabrlanuvchi Jinoyat kodeksining 661-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan taqdirda jinoyat ishi ushbu Kodeksning 62-bobida belgilangan tartibda sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkin.

Jinoyat ishi quyidagi hollarda shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin, basharti:

– ishni tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilsa;

– ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa;

– sodir etilgan qilmishning xususiyatini, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganing shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga qarab chiqish uchun berish maqsadga muvofiq bo'lsa.

Qayd etish joizki, amaldagi tartib bo'yicha jinoyat ishi ushbu Kodeksning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lganda, jinoyat ishini tugatish Kodeksning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan qoidalarga rioya qilingan holda tuzilishi zarur.

Qarorning tavsif qismida:

– jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tasmollar;

– gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga qo'yilgan ayb va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, basharti bu shaxslarga qo'yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo'lsa;

– jinoyat ishini tugatish asoslari;

– bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jildlari va sahifalarida aks ettirilganligi;

– ashyoviy dalillarning ro'yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to'g'risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo'lsa;

– fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

– jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi;

– gumonni yoki ayblovni olib tashlash to'g'risidagi;

– ehtiyot choralari, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bekor qilish to'g'risidagi;

– ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar bayon qilinadi.

Tergovchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakiliga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi.

Bundan tashqari, surishtiruvchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori ushbu Kodeksning 374-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda tuziladi.

Surishtiruvchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakillariga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda surishtiruvchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.

Mazkur masala bo'yicha sud ajrimi xususida to'xtalsak, unda:

jinoyat ishini tugatish asoslari ko'rsatiladi;

ehtiyot choralari, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bekor qilish haqidagi masalalar hal etiladi;

ashyoviy dalillar to'g'risidagi masala hal etiladi.

Sud ushbu Kodeks 84-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatishga haqli hisoblanadi.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh sutka ichida prokurorga yuboriladi, o'ziga nisbatan ish tugatilgan shaxsga va jabrlanuvchiga topshiriladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqib, shu jumladan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga asosan (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya), shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan

turib jinoyat ishi tugatilganda shikoyat qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish talab etiladi.

Xulosalar

Xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish tartibini yanada takomillashtirishni zamonning o'zi talab etmoqda.

Fikrimizcha, JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarni, ya'ni "reabilitatsiya uchun asoslar" va "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar"ni o'zaro birlashtirilgan holda belgilanishi taklif etiladi.

Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya), jinoyat ishi tugatilganda unga nisbatan shikoyat qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish talab etiladi.

Bundan tashqari, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslarni chuqur o'ylab tahlil qilingan holda qayta ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

REFERENCES

1. Плошкина Я.М., [Презумпция невиновности и прекращение уголовного дела по нереабилитирующим основаниям по законодательству РФ с учетом опыта ФПГ]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/prezumpsiya-nevinovnosti-i-prekraschenie-ugolovnogo-dela-po-nereabilitiruyuschim-snovaniyam-po-zakonodatelstvu-rf-s-uchetom-opyta/>.
2. Дабижа Т.Г. Процессуальные гарантии реализации полномочий адвоката–защитника в уголовном судопроизводстве. Журнал российского права. 2012. №7 (187)
3. Гаврилова Е.А. Процессуальные гарантии независимости адвоката в системе обеспечения конституционного права на защиту. Сибирские уголовно-процессуальные и криминалистические чтения, 2019 . №1(23);
4. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019;
5. Timoshenko S.P., Young D.H., Weaver W. Vibration problems in engineering. 4th ed. New York, Wiley, 1974. 521 p. Russ. ed.: Timoshenko S.P., Iang D.Kh., Uiver U. Kolebaniia v inzhenernom dele. Moscow, Mashinostroenie Publ., 1985. 472 p.
6. Лавнов, М. А. Актуальные вопросы прекращения уголовного дела по нереабилитирующим основаниям в стадии предварительного расследования. Вестник Саратовской государственной академии права. 2011. № 2. С. 201–204.
7. Inogamova-Hegaj L.V. Konkurenciya ugolovno-pravovyh norm pri kvalifikacii prestuplenij: Uchebnoe posobie. M., 2002. 157 s;
8. Larin A.M. Prezumpciya nevinovnosti i pre-krashchenie ugolovnogo dela po nereabilitiruyushchim osnovaniyam // Sud i primeneniye zakona. M., 1982. S. 93–95.
9. Tarasova G.V. Garantii zakonnosti i obosno-vannosti prekrashcheniya ugolovnyh del organami doz-naniya i predvaritel'nogo sledstviya: Avtoref. dis. ... kand. jurid. nauk. Voronezh, 2001.
10. Varyanik A.A. Prekrashchenie publichnogo ugo-lovnogo presledovaniya (dela) po nereabilitiruyushchim osnovaniyam: problemy normativnogo regulirovaniya i pravoprimeneniya: Avtoref. dis. ... kand. jurid. nauk. N. Novgorod, 2005.
11. Golovko L.V. Al'ternativy ugolovnomu pre-sledovaniyu v sovremennom prave. SPb., 2002.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.